

MUSTAHKAM OILA SIRLARI

Ismoilova Himoyatxon Abdughalilovna

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti gumanitar yo'naliishlar bo'yicha
chet tillari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustahkam oila sirlarining badiiy va diniy manbalardagi talqini to'g'risida olib borilgan. Mustahkam oila bo'lishlikda erkak va ayolning zimmasidagi majburiyatlarini yoritib bergen.

Tayanch so'zlar: aql-idrok, sabr qanoat, Alloh taolo, axloq-odob, mehr-muruvvat, tinchlik, totuvlik, odamiylilik qonuniyatları, og'ir mashaqatlar, tarixiy manbalar, munosabat-nomus, sharmu hayo, odob, oliyjanoblik, ayol jasorati, buyuk olim va mutaffakirlar, oila va jamiyat, aqliy kamolat, axloqiy barkamollik.

Bugungi kunda ayol mavzusiga doir munozara va muhokamalar eng yuqori nuqtada turibdi. Yer yuzi yaralibdiki, insoniyat oila va jamiyatda ravnaq topishi uchun hayoti davomida izlanib, kurashib keladi. Hayot so'qmoqlari insoniyatni turli sinov va mushkulliklarni boshidan o'tkazishga majbur qiladi. Bu borada ko'plab olim va tadqiqotchilar ayollar erkaklarga qaraganda irodali va bardoshli ekanligini bot-bot ta'kidlashmoqda, Chunki, Alloh taolo ayol kishini yaratayotganda unga noziklik, nafislik, ko'ngilchanlik, metin iroda, mustahkam sadoqat, vafodorlik, oilaparvarlik, jonkuyarlik, go'zallik va, shu qatorda, samolardan kengroq sabr va bardoshlilikni ham in'om etgan. Britaniyalik yozuvchi Vilyam Golding ayollarga shunday tarif beradi. "Ayollarning o'zlarini erkakga tenglashtirishlari aslida to'g'ri emas. Aksincha, ular erkakdan ancha ustundirlar. Chunki, ayolga nima bersangiz, ular uni ortig'i bilan sizga qaytaradi.

Agar siz ayolga uy qurib bersangiz, sizga uni shinam maskan qilib qaytaradi.

Agar siz unga masalliqlar bersangiz, u sizga taom beradi.

Agar siz unga birgina tabassum qilsangiz, u sizga butun yuragini tortiq qiladi.

Ayol zoti o'ziga berilgan narsani ko'paytiradi va mo'l-ko'l qiladi. Shu sababli agar unga birorta ifloslik qilsangiz, bir dunyo axlatni qabul qilishga tayyor turing"¹.

Bu borada erkaklar ayollardan ustunroq degan fikr biroz yanglishdir, bunda faqat ayolarni kamsitish, ezish, ularning huquqlarini cheklab qo'yilganini unutmaslik lozim. Bu fikr yanglish ekanini Muhammad payg'ambarimizning quyidagi hadislari orqali bilib olishimiz mumkin. "O'z xotiniga mehr-shafqatli bo'lgan kishilar oralariningizdagagi eng yaxshi kishilardir".

Er-xotin o'rtasidagi ichki hamijihatlik, bir-biriga bog'liqlik 2-suranining 187-oyatida aniq-ravshan bayon etilgan: "Ular sizlarning libosingiz, sizlar ular uchun libossizlar", ya'ni er-xotin bir-biriga xuddi libosga muhtoj bo'lganlari kabi

¹ Интернет.Соф ибрат

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

muhtojdirlar². Diniy manbalarda yozilishicha, Muhammad payg‘ambarimizning birichi ayoli, ya’ni Hadicha bo‘lib, u payg‘ambarimizga hayotida davomida taskin berib, qo’llab-quvvatlaganini ko‘rishimiz lozim. Ayniqsa, Muhammad payg‘ambarimizga Hiro tog‘ida birinchi vahiy kelganda uni yupatib, taskin bergenini unutmasligimiz lozim. Shu borada erkaklar ham o‘z ayollarini qo’llab-quvvatlamog‘i lozim. Mahbubiy shunday deganlar, “Ayolning mayda kamchiliklaridan ko‘z yuma olmagan erkak uning ulkan fazilatlaridan baha ololmaydi³.

Shuni ta’kidlash joizki, ayol kishining mavqeい va haq-huquqlarini targ‘ib qilishda islom dini birinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, u ayol kishi ham xuddi erkak kishidek, haq-huquqga ega ekanligini bildiradi. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bu to‘g‘risida; “Albatta, ayollar erkaklarning yorti qismidir“, deb marhamat qildilar⁴. Muqaddas islom dini ayol kishi oilada qadrlanishni nafaqat ayol balki ona, jufti halol va shu jumladan, oilaning chirog‘i, farzandlarning tarbiya qilish mas’uliyati in’om etgan. Shuning uchun ayolni ham jufti halol, ham ona deb ulug‘laymiz. “Islom dinining muqaddas manbasi Qur‘oni karimning 35ta sura va 102 ta oyatida ayol so‘zining ishlatalishi va suralardan biri aynan “Niso”, ya’ni “Ayollar” deb nomlanishi, ayol mavqeい, uning hayotdagi o‘rni, haq-huquqlari, batafsil bayon etilishi ayollarga bo‘lgan e’tiborning yorqin ifodasidir⁵.

Mustahkam oila bo‘lib yashashda ayollarni o‘rni beqiyos. Ayollar o‘z erlari uchun bezanib yurishllar shart bugungi kunda ayollar aksini qilishadi. Zotan erkaklar chiroyli yuz va shirin ifordan zavqlanishadi. Lekin soliha ayolning go‘zal bo‘lishi nafaqat pardoz andozda emas, balki ularning qalbidadir. Shu asnoda, bir hodisani misol tariqasida ko‘rish mumkin.

“Yuzlaridan nur yog‘ilib turgan ofiyatli, keksa bir muslima ayoldan: “Bunday ko‘rinishga qanday ega bo‘ldingiz?” deb so‘rashganlarida, u: “Lablarimga haqni, ovozimga zikrni, ko‘zlarimga halolni, qo’llarimga ehsonni, oyoqlarimga to‘g‘rilikni surtdim. Shuningdek, qalbimga Alloh sevgisini, aqlimga hikmatni, nafsimga itoatni, hirsimga imonni ravo ko‘rdim”, deb javob qaytargan ekan”⁶.

Ayollarga hos eng go‘zal boylik-bu iffatdir. Iffat esa solihalik, itoatlik, bosiqlik, mustahkam aql-idrok, yetuk islomiy tarbiya, sabr-qanoat, go‘zal axloq, iboli hulq va boshqa xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmud As‘ad Jo’shon “Tasavvuf va go‘zallik” T.: 2004.
2. Салим қори Қодиров “Аёлни эъзозлаган дин” Т.: 2018

² Аннемарие Шиммел “Жонон менинг жонимда” Т.:1999 Б.28.

³ Андрологий уз

⁴ Салим қори Қодиров “Аёлни эъзозлаган дин” Т.: 2018.Б.3

⁵ Салим қори Қодиров “Аёлни эъзозлаган дин” Т.: 2018 .Б.6

⁶ Зиёуддин Раҳим “Баҳтли ҳаёт сари”.Т.: 2018.Б.319

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

3. Зиёуддин Раҳим "Баҳтли ҳаёт сари". Т.: 2018.
4. Интернет. Соф ибрат
5. Аннемарие Шиммел "Жонон менинг жонимда" Т.: 1999 Б.28.
6. Андролог үз
7. Салим қори Қодиров "Аёлни эъзозлаган дин" Т.: 2018
8. Tasavvuf haqida tasavvur Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Toshkent; 2019 yil
9. Internet sahifalari; hikmatlar.uz; <https://hikmatlar.uz>>quote
10. Ismoilova, H. (2022). Commonwealth of Women in Folklore and Written Literature. *Eurasian Research Bulletin*, 8, 22-24.
11. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 541-543.
12. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
13. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
14. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12)
15. Ismoilova, H. A. The Expression of the Husband's Duties to His Wife and the Woman's Place in Religion and Society.
16. Ismoilova, H. (2022). Commonwealth of Women in Folklore and Written Literature. *Eurasian Research Bulletin*, 8, 22-24.
17. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 541-543.
18. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 541-543.
19. Ismoilova, H. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOLLARNING TASNIFI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 422-425.
20. Ismoilova, H. (2022). Portrait of Women's Place in the Family in Fiction Literature. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 68-72.
21. Ismoilova, H. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOLLARNING TASNIFI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 422-425..